



INVESTITSION LOYIHA RISKLARINING MOHIYATI VA TURLARI
NATURE AND TYPES OF RISKS IN INVESTMENT PROJECTS

**¹Ibragimov Sherzod
Ochil o‘gli**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura talabasi

**Annotatsiya
Annotation**

Uzb - Maqolada investitsion risklarning mohiyati va turlari bo‘yicha ilmiy qarashlar, ta’riflar keltirilgan hamda korxonalar faoliyatida yuzaga keladigan investitsion risklar tasniflangan.

Eng - The article presents scientific views and definitions on the nature and types of investment risks, and classifies investment risks that arise in the activities of enterprises.

**Kalit so‘zlar:
Keywords:**

- ❖ *investitsiya, risk, risk omillari, noaniqlik, investitsion risk.*
- ❖ *investment, risk, risk factors, uncertainty, investment risk.*

Kirish.

Investitsion risklar investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida foydaning to‘liq olinmasligi yoki yo‘qotilishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Investitsion risklarni mablag‘larni jalb qilish usuli va loyihaning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab tasniflash mumkin. Korxonalar faoliyati davomida yuzaga kelish joyi va vaqtiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi turli xil risklarga duch keladilar. Shu sababli risklarni tavsiflash va tahlil qilish usullari tubdan farqlanadi. Risklarning barcha turlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, korxonalar faoliyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa risklarni optimallashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi hamda har bir risk turining tarkibini, ularning kelib chiqish sabablari va ta’sir etuvchi omillarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijlik olim T.Li mamlakatda xorijiy investitsiya siyosatining samaradorligini baholash uchun panel regressiya modelini

qo‘llaydi, bunda siyosat ta’sirini aniqlash uchun tartibga solish indeksidan foydalanadi [1].

Lemeshko investitsiya loyihalarini baholashda tizimli yondashuvni taklif etadi, ushbu yondashuv loyihaning dastlabki moliyaviy nazoratidan boshlab samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni o‘z ichiga oladi [2].

Saprikina va Chjan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va tashqi savdo o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilib, vertikal to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar retseptient mamlakatlarda eksport hajmini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi aniqlangan [3].

N.N. Seraya va boshqalar investitsion riskni quyidagicha ta’riflaydilar: investitsion risk – bu zamonaviy iqtisodiyotdagi beqaror vaziyatlar, davlat hokimiyati va o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining siyosiy va iqtisodiy qarorlari natijasida investorlar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalarning qadrsizlanishidir [4].

K.B. Safarovning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, har qanday tashkilot o‘z

faoliyatida investitsiya riski ehtimolini hisobga olishi zarur va uni boshqarish bo'yicha choralar ko'rish kerak [5].

Investitsion risklar investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida foyda olish yoki uni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan xavflardir. Shuningdek, tadqiqotchi N.A. Abduraxmonov risklarni sug'urta nuqtai nazaridan klassifikatsiyasini keltirib o'tgan [6].

Yuqoridagi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'riflar va investitsiya risklarini boshqarish bo'yicha yondoshuvlar loyihalar samaradorligini baholash uchun keng qamrovli asosni taqdim etgan bo'lsa-da, ijtimoiy va ekologik omillar kabi investitsiya ta'sirining sifat jihatlarini e'tibordan chetda qoldirgan. Shu sababdan, investitsion loyiha risklarini tasniflashni qayta ko'rib chiqish va jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan geosiyosiy keskinliklar sharoitida risklarning yangi shakllari va turlarining yuzaga kelishi, shuningdek, ularning ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash kabi usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida keng e'tirof etilgan, chunki u yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi va globallashtirish jarayonini jaddalashtiradi. Bozor hajmi, infratuzilma sifati, boshqaruv va inson kapitali kabi omillar investitsiya faoliyatiga ta'sir qiladi. Investitsiya investitsiya jarayonini boshqarish nafaqat investitsiya risklarining mavjudligini hisobga olishi, balki ularning ko'lami va oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Investitsion faoliyatning barcha shakl va ko'rinishlari risk bilan bog'liqdir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi risklarni samarali boshqarish maqsadida daromad va riskning optimal nisbatini topishni talab qiladi. Buning uchun risklarni aniqlash, tahlil qilish va ular bilan bog'liq strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Risk va daromad orasidagi muvozanatni saqlash orqali investitsiya loyihalari nafaqat qisqa muddatda, balki uzoq muddatda ham barqaror daromad olish imkoniyatini yaratadi. Milliy boylikning o'sishini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri investitsion faoliyatdir, bunda loyiha ko'rsatkichlarini har tomonlama tahlil qilish, jumladan investitsiya risklarini aniqlash va baholash muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tahlillar natijasida investitsiyalarga oid risklarning tasnifi 1-rasmida keltirilgan.

1-jadval

Investitsion risklarning tasnifi

	Risklarning yuz berish mezonlari	Risk turlari
1.	Muddatiga ko'ra	Retrospektiv / joriy / istiqbolli
2.	Darajasiga ko'ra	Kichik / maqbul / to'liq
3.	Vaqt bo'yicha davomiylik nuqtai nazaridan	Doimiy / vaqtinchalik (qisqa muddatli, uzoq muddatli)
4.	Obyektiga ko'ra	Tashqi / ichki
5.	Bashorat qilish nuqtai nazaridan	Bashorat qilinadigan / bashorat qilinmaydigan
6.	Investitsion loyihalarni amalga oshirish darajasiga qarab	Mikro / mezo / makro
7.	Kelib chiqishiga ko'ra	Tizimli (bozor) / tizimsiz (maxsus)
8.	Mumkin bo'lgan oqibatlariga ko'ra	Maqbul / kritik/ halokatli
9.	Oqibatlarining tabiatiga ko'ra	Sof (statik) / spekulyativ (dinamik)
10.	Amalga oshirish sohasiga ko'ra	Texnik, texnologik / iqtisodiy / siyosiy / ijtimoiy / ekologik

Investitsion risklarning mohiyati va ularni boshqarishda sug'urta mexanizmi optimal iqtisodiy usul sifatida ko'riladi. Korxonalar investitsiya risklarini tasniflashda bir nechta mezonlarni hisobga olishadi. Biroq, bu tasniflash sub'ektiv bo'lishi mumkin va har bir faoliyat turiga qarab qo'shimcha mezonlar bilan to'ldirilishi mumkin. Shuningdek, barcha risklarni to'liq qamrab olish imkoniyati ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi tufayli cheklanadi. Bundan tashqari, bir turdagi riskning o'zgarishi boshqa risklarning yuzaga kelishiga yoki o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Investitsion risklar darajasini tahlil qilishda nafaqat statik, balki dinamik yondashuv ham zarur. Retrospektiv tahlil qilish orqali risklarning tabiati va ularni kamaytirish usullarini aniqlash mumkin. Investitsion risk darajasi rejalashtirilgan zarar yoki yo'qotishlarning ehtimolini ifodalaydi.

Investitsion risk darajasi – bu rejalashtirilganidan yuqori bo'lgan zarar yoki yo'qotishlarga olib keladigan riskli vaziyatlarning ehtimolini bildiradi. Doimiy risk – bu doimiy ravishda mavjud bo'lgan risk bo'lib, faqat muayyan vaziyatning o'zgarishiga qarab o'z darajasini o'zgartiradi. Bu turdagi risklar investitsion operatsiyaning butun davri davomida mavjud bo'ladi va doimiy omillarning ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, valyuta kurslari va foiz stavkalari risklari shu guruhga kiradi [7].

Vaqtinchalik risklar korxonalarining investitsiya faoliyatining ma'lum bosqichlarida yuzaga keladi. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: qisqa muddatli – ma'lum vaqt oralig'ida, cheklangan miqdorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar va uzoq vaqt davomida yuzaga keladigan risklar.

Ichki (subyektiv) risklar korxonaning (yoki tarmoqning) o'z faoliyatiga bog'liq bo'lgan risklardir. Ular investitsiyalarni yoki ishlab chiqarish jarayonlarini malakasiz boshqarish, aktivlarning samarali bo'lmagan tuzilishi va boshqa sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Tashqi (obyektiv) risklar – bu korxonaning tashqi muhitdagi holat va sharoitlar o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklardir. Ular iqtisodiy siklning turli bosqichlariga o'tish, moliyaviy bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, mamlakatdagi siyosiy tizimdagi beqarorlik va boshqa shu kabi omillar bilan bog'liq bo'lib, korxonaga bu kabi risklarga ta'sir etish salohiyati past hisoblanadi.

Bashorat qilinadigan risklar – iqtisodiyotning davriy rivojlanishi, moliya bozoridagi kon'yunktura o'zgarishlari, raqobat muhitining prognoz qilinadigan rivojlanishi kabi omillar ta'sirida yuzaga keladigan risklardir. Biroq, oldindan aytib bo'lmaydigan investitsion risklar bu kabi imkoniyatdan mahrum bo'ladi. Umuman olganda, investitsion risklarning bashorat qilinishi nisbiy xarakterga ega.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish darajasi nuqtai nazaridan, asosiy risklar mezo darajadagi va “sof risk”lar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, mintaqaning investitsiyaviy salohiyatini samarali boshqarish uchun mikro darajadagi risklarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bundan tashqari, makroiqtisodiy risklar ma'lum darajada yuzaga kelganda, ular mintaqaviy investitsiya faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularni mezo darajada hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tizimli (bozor) risk investitsiya faoliyatining barcha ishtirokchilari va shakllariga xos bo'lib, u iqtisodiy tsikl bosqichlarining o'zgarishi, soliq qonunchiligidagi yangilanishlar hamda investor investitsiya obyektini tanlashda ta'sir eta olmaydigan boshqa tashqi omillar bilan belgilanadi. Tizimsiz (o'ziga xos, maxsus) risk esa – muayyan investitsiya obyektiga yoki aniq investor faoliyatiga xos bo'lgan riskdir. Bu risklar korxonaga boshqaruv xodimlarining vakolatlari, bozorning ma'lum segmentida raqobatning kuchayishi, investitsion kapitalning tuzilmasi kabi omillar bilan bog'liq

bo'lishi mumkin. Bunday risklarning oldini olish yoki ularni kamaytirish loyihalarni diversifikatsiya qilish, optimal investitsiya portfelini shakllantirish yoki investitsiya loyihalarini samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi. O'z navbatida, tizimsiz investitsiya risklari quyidagilarga bo'linadi:

a) investitsiya portfelining risklari – bu investitsiya kapitalini shakllantirish va boshqarish jarayonida yuzaga kelib, ushbu risklar tarkibiga kapital, muvozanatning buzilishi hamda konsentratsiya riski kiradi.

b) investitsiya obyektlariga oid risklar – alohida investitsiyalarni hamda umumiy investitsiya portfelini baholashda hisobga olinishi lozim bo'lgan xavflar bo'lib, ular quyidagilardan iborat: mamlakat, tarmoq, mintaqaviy, vaqt omiliga bog'liq, likvidlik, kredit hamda operatsion yo'qotishlar riski.

Maqbul risk – bu korxonalarining ma'lum bir investitsiya loyihasini amalga oshirishdan to'liq yoki qisman foyda yo'qotish riski bo'lib, ularning hajmi kutilgan foydadan kamroq bo'ladi. Ushbu risk sug'urta kompaniyasiga murojaat qilmasdan, likvidli tovarlar va moliyaviy zaxiralarini boshqarishni tashkil etish orqali sug'urtalanishi mumkin.

Kritik risk – bu ma'lum bir investitsiya loyihasini yoki moliyaviy faoliyat turini amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlar miqdoridagi yo'qotish riskidir. Shu bilan birga kritik riskni ikkiga bo'lish mumkin, birinchi darajali kritik investitsiya riski bu nol daromad olish bilan bog'liq bo'ladi va korxonadan tomonidan qilingan moliyaviy xarajatlar orqali qoplanadi. Ikkinchi darajali kritik investitsiya riski to'liq xarajatlar miqdorida yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq, ya'ni mo'ljallangan daromadning yo'qolishi ehtimoli va korxonadan xarajatlari boshqa manbalardan qoplanishi kerakligini anglatadi.

Halokatli risk moliyaviy yo'qotishlar korxonaning mulkiy holatini qisman yoki to'liq yo'qotish bilan belgilanadi va bu ularni bankrotlikka olib keladi, chunki bu holda nafaqat investitsiya qilingan barcha mablag'lar,

balki korxonaning boshqa operatsiyalari va mulklarining yo'qolishiga olib kelish mumkin bo'ladi.

Sof risklar (statik) – bu tadbirkorlik faoliyati uchun deyarli har doim yo'qotishlarga olib keladigan risklardir. Bunday risklarning sabablari tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, tashkilotning qobiliyatsizligi va boshqa kutilmagan holatlar bo'lishi mumkin. Sof risklar odatda oldindan prognoz qilish va ularni boshqarish qiyin bo'lgan, beqaror vaziyatlar ya'ni fors-major holatlari bilan bog'liqdir.

Spekulyativ risklar (dinamik) – bu risklar tadbirkor uchun kutilayotgan natijaga nisbatan ham zarar, ham qo'shimcha foyda keltirishi mumkin bo'lgan risklardir. Bunday risklarning sabablari bozor kon'yunkturasi, valyuta kurslari, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar va boshqa iqtisodiy omillar bo'lishi mumkin. Spekulyativ risklar odatda yuqori darajadagi qiziqish va foyda olish istagi bilan bog'liq bo'lib, ular o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Texnik va texnologik risklar – bu risklar loyiha amalga oshirilishi jarayonida faoliyatning texnik va texnologik tarkibiy qismlariga ta'sir qiluvchi noaniqliklar bilan bog'liqdir. Ushbu risklarning sabablari ishlab chiqarish jarayonlarining prognoz qilinishi, avtomatlashtirish darajasi, uskunalar va texnologiyalarni modernizatsiya qilinishi va boshqa texnik parametrlar bilan bog'liqdir. Bunday risklar texnologik yangiliklar va uskunalarining ishlashida yuzaga keladigan muammolarni o'z ichiga oladi va ularni aniqlash va boshqarish loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy risklar – bu davlatdagi investitsiya faoliyatining iqtisodiy tarkibiy qismiga va investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga ta'sir etuvchi noaniqlik omillari bilan bog'liqdir. Ushbu risk tarkibiga iqtisodiyotning holati, davlat tomonidan olib boriladigan byudjet, moliya, investitsiya va

soliq siyosati, iqtisodiyotning tsiklik rivojlanishi va fazalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi kabi omillar kiradi. Bu risklar iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va davlatning iqtisodiy siyosati bilan bog'liq holda yuzaga keladi, bu esa investitsion qarorlarni qabul qilishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Siyosiy risklar – investitsiya faoliyatini amalga oshirishda siyosiy tarkibiy qismga ta'sir etuvchi quyidagi noaniqlik omillari bilan bog'liqdir: davlat siyosatidagi o'zgarishlar, investitsiya faoliyatiga ma'muriy cheklovlar, qo'shma korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashishi va boshqalar. Siyosiy risklar davlatning ichki va tashqi siyosatidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi, bu esa investitsiya faoliyatini amalga oshirishni murakkablashtiradi.

Ijtimoiy risklar – investitsiya faoliyatining ijtimoiy tarkibiy qismiga ta'sir etuvchi noaniqlik omillari bilan bog'liqdir. Bunga ijtimoiy keskinlik, ish tashlashlar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar kiradi.

Ekologik risklar – bu atrof-muhit holatiga va investitsiya qilingan obyektlarning faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklardir. Bunga atrof-muhitning ifloslanishi, radiatsiyaviy sharoitlar, tabiiy ofatlar, ekologik dasturlar va boshqalar kiradi. Ekologik risklar quyidagilarga bo'linadi: texnogen (inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan ekologik risklar), tabiiy-iqlim (tabiat hodisalari yoki iqlim o'zgarishlaridan kelib chiqadigan risklar), ijtimoiy-maishiy (jamoat va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq ekologik risklar).

Qonunchilik risklari – bu amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan bog'liq risklardir. Bunga qonunchilik va huquqiy bazaning nomuvofiqligi, qonunchilik kafolatlarining noaniqligi va boshqa huquqiy risklar kiradi. Ushbu risklar qonunlar va

me'yoriy hujjatlar o'zgarishidan kelib chiqadi va investitsiya faoliyatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Korxonalarining investitsiya faoliyati bir qator boshqa risklar bilan ham tasniflanishi mumkin. Bunga ishlab chiqarish, inflyatsiya, deflyatsion, bozor (valyuta va foiz stavkasi), funksional, investitsiya va yo'qotilgan foyda risklari kiradi. Bu risklar korxonaning ichki va tashqi faoliyatiga ta'sir qiluvchi turli omillarni o'z ichiga oladi va ularning boshqarilishi korxonaning muvaffaqiyatli ishlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Korxonalarining investitsiya faoliyati bilan bog'liq risklarni aniqlashda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Risk bu investitsiya jarayonlarida e'tiborga olish kerak bo'lgan eng muhim omillardan biridir. Investitsion loyihaning riski ko'p qirrali hisoblanadi, ko'pincha u boshqa risk elementlarining murakkab tuzilmasini ifodalaydi.

2. Moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tizimida investitsiya riski toifasi asosiy hisoblanadi, chunki ushbu riskni samarali boshqarish mamlakat iqtisodiyotida raqobatbardoshlik darajasini oshishini belgilaydi.

3. Yangi moliyaviy texnologiyalardan, zamonaviy moliyaviy vositalardan va boshqa omillardan foydalanish korxonalar uchun investitsiya risklarining yangi turlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

4. Investitsiya risklarini prognozlash ularning mohiyatini va xususiyatlarini shakllantiradi, bu investitsiya jarayonini boshqarishda nafaqat risklarni hisobga olishni, balki investitsiya jarayonlarini boshqarish tizimida investitsiya risklarini kuzatuvchi, baholaydigan va boshqaradigan alohida quyi tizimni shakllantirishni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Le, T., & Dang, T. *An Integrated Approach for Evaluating the Efficiency of FDI Attractiveness: Evidence from Vietnamese Provincial Data from 2012 to 2022. Sustainability.* <https://doi.org/10.15587/2312-8372.2017.98189> Qi, C., & Tang, J. (2006). *Foreign direct investment: A genetic algorithm approach. Socio-economic Planning Sciences*, 40, 143-155. <https://doi.org/10.1016/j.seps.2006.03.001>.
2. Nataliia, Lemeshko. *Analysis and Estimation of Effectiveness of Investment Projects. Technology audit and production reserves*, doi: 10.15587/2312-8372.2017.98189 Qi, C., & Tang, J. (2006). *Foreign direct investment: A genetic algorithm approach. Socio-economic Planning Sciences*, 40, 143-155. <https://doi.org/10.1016/j.seps.2006.03.001>.
3. Сапруккина Н.А., Чжан Ю, *Foreign trade effects of foreign direct investment in the economy of the host state and methodological approaches to their assessment. Экономика и предпринимательство*, doi: 10.34925/2474-8930.2022.12.1.100-105
4. Серая Н.Н., Ляшенко К.А., Саввина Ю.В. (2018) Анализ особенности инвестиционных рисков. *Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования*, №7 (33), Том 2, 2018г. 165-170 стр.
5. Сафаров К.Б. (2022) Инвестиционные риски: классификация и методы их оценки. *central asian journal of innovations on tourism management and finance* Volume: 03 Issue: 10 | 2022 ISSN: 2660-454X 213-220 стр.
6. Abduraxmonov N.A. Sug'urta sohalarining shakllanish tendensiyalari. *MOLIYA VA BANK ISHI*, 8(3), 60-67. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/33>.
7. Кадырбаев И.А. Теоретические вопросы исследования инвестиционного риска, основные признаки и классификация // *МИР (Модернизация. Инновации. Развитие)*.